INKLYUZIV KONSEPTNING SHAKLLANISHI SEMANTIK TARAQQIYOTI VA TUSHUNCHAVIY CHEGARALARI

Rahmatullayeva Mahliyo
Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 16-sonli Jasorat maktabida oliy ma’lumotli ingliz tili o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

So‘nggi yillarda jahon mamlakatlarida alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar ta’limi masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, Shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ham ushbu masala davlat ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etib kelinmoqda va qator huquqiy asoslar yordamida alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar ta’limi kafolatlanmoqda. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishning yangi shakli inklyuziv ta’lim tushunchasining paydo bo‘lishi va O‘zbekistonda ushbu ta’lim shaklining qo‘llanilishi masalalariga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Inklyuziv ta’lim, “inclusif”, jahon tajribasi, a’lohida ta’lim ehtiyoji mavjud bo‘lgan bolalar ta’limi, eksklyuziya, segregatsiya, integratsiya, xalqaro huquq normalari.*

ABSTRACT

In recent years, the issues of education of children with special educational needs have gained urgent importance in the countries of the world. Also, in the years of independence, this issue has been recognized as an important component of the state social policy, and with the help of a number of legal bases, special education of children with educational needs is guaranteed. This article focuses on the emergence of the concept of inclusive education, a new form of teaching children with disabilities, and the application of this form of education in Uzbekistan.

Key words: *Inclusive education, “inclusive”, world experience, education of children with special educational needs, exclusion, segregation, integration, norms of international law.*

Bugungi kunda jahonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta’lim tushunchalarida biri sifatida inkluziv ta’lim konseptsiyasi keng o‘rin egallamoqda. Inklyuziv so‘zi fransuzcha “inclusif” so‘zidan olingan bo‘lib, “kiritish, o‘z ichiga olish” degan ma’nolarni anglatadi. Inklyuziv ta’lim tushunchasi esa umumiy ta’lim (ommaviy) maktablarda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish jarayonini

tavsiflash uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi. IDA (Xalqaro Nogironlar Assosiasiyasi) ta’rifiga ko‘ra, “Inklyuziv ta’lim – imkoniyati cheklangan va sog‘lom barcha o‘quvchilarning o‘z ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan barcha ko‘makni olgan holda birgalikda ta’lim olishi mumkin bo‘lgan tizimdir” [8,11].

Inklyuziv ta’lim tushunchasi zamonaviy atama bo‘lib, u ta’limning bir turi sifatida barcha ta’lim oluvchilar uchun ularning qobiliyatlari va imkoniyatlaridan qat’iy nazar teng sharoitlarda ta’lim olishlarini anglatadi. Shuningdek, bu tushuncha alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun xavfsiz va qulay ta’limni ta’minlash va ular uchun xalaqit qiluvchi to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Ya’ni, inklyuziv ta’lim bu barcha ta’lim oluvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir. Qisqa qilib aytganda esa barcha bolalarning birgalikda bir xil maktablarda ta’lim olishini ifodalaydi. Inklyuziv ta’lim barcha mamlakatlarda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardan biridir.

So‘nggi yillarda alohida ta’lim ehtiyoji mavjud bolalar ta’limiga berilayotgan e’tibor ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini oshirmoqda. Jahon olimlari tomonidan ushbu sohada ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilib, qator ilmiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. M.Mason, R.Rieser, J. Morris o‘z tadqiqotlari orqali Buyuk Britaniyada inklyuziv ta’lim tizimini tahlil etgan bo‘lsa, M.A.Vinzer, Z.Veygand, D.L.Ferguson P.Haug, L.Vislielar butun dunyoda imkoniyatlari cheklangan shaxslar maxsus ta’lim tizimi tarixini yoritishga harakat qiladi. So‘nggi yillarda qator tadqiqotchilar tomonidan O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning joriy etilish, erishilgan yutuqlar va sohadagi kamchiliklar tahliliga bag‘ishlangan ishlar amalga oshirilmoqda.

B.Abdullayev, S.Abdullayeva, K.G.Muhammadova, L.Romanova, G.Nam, Sh.Ikromova kabi tadqiqotchilar O‘zbekistondagi inklyuziv ta’lim faoliyati to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlar bergan. Mazkur maqolani yozishda sohaga oid olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan, mavjud qoninchilik hujjatlari, shuningdek YuNESKO, YuNISEF, USAID, IDA kabi xalqaro tashkilotlar e’lon qilgan materillardan statistik va tahliliy manbalar sifatida foydalanildi.

Umuman alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar uchun maxsus maktablar XVIII asr o‘rtalarida ko‘zi ojiz, kar va keyinchalik o‘rganish imkoniyati cheklangan bolalar uchun paydo bo‘lgan xayriya muassasalari asosida ildiz ota boshlagan. Dunyodagi birinchi maxsus maktablardan biri Parijdagi Institut National des Jeunes Aveugles bo‘lib , u 1784 yilda tashkil etilgan [9, 12.]. Bu dunyodagi birinchi ko‘zi ojiz o‘quvchilarga ta’lim beradigan maktab edi. XVIII asr oxirlarida esa

shotlandiyalik Tomas Braidvud tomonidan Edingburgda ham ko‘zi ojizlar uchun ta’lim beruvchi maktab tashkil etildi [6, 23].

Ammo, XIX asr oxirlariga qadar ham a’lohida ta’lim ehtiyoji mavjud bolalarga ta’lim berish masalasi unchalik ahamiyat kasb etmagan. Misol uchun Buyuk Britaniyada 1870 yilgacha nafaqat imkoniyati cheklanganlar, balki sog‘lom bolalarning ham juda kamchiligi ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lgan [5, 8]. Albatta buning asosiy sabablaridan biri bu maktablar asosan xayriya shaklida ko‘ngillilar tomonidan molyalashtirilib turilgan yoki cherkov tominidan yuritilgan va bolalarning juda kichik qismini qamrab olish imkoniyatiga ega edi.

XIX asrning oxirlaridan boshlab majburiy ta’limi va o‘quvchilar bilimini baholashning yangi tizimlari joriy etilishi jarayonida ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limi masalalari bir muncha chetda qolib ketti. Biroq, Britaniyada Qirollik komissiyasi tomonidan 1889 yilda va keyinchalik chiqarilgan bir qator qonun hujjatlari orqali mahalliy ta’lim organlari zimmasiga qator masuliyatlar yuklay boshladi. 1892 yilda Lesterda “zaif” o‘quvchilar uchun birinchi maxsus maktab, 1905yilda Manchesterda “nogiron” bolalar uchun birinchi maxsus maktab ochildi va 1918yilga kelib jismonan “nuqsonli” o‘quvchilar uchun 60 ta kunduzgi maktab va 35 ta maktab-internatlar mavjud edi. Yuqoridagi o‘tkazilgan tashabbuslar va islohatlarga qaramasdan butun dunyoda eksklyuziya (ta’lim bilan qamrab olinmagan, ya’ni ta’limdan tashqarida nogironligi bor bolalar. Bunday bolalar ta’limga jalb etilmaydi va o‘z-o‘zidan ularning ta’lim olish huquqlari ta’minlanmaydi.) darajasi anchayin yuqori edi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish uzoq muddatli strategiya bo‘lib, uni amalga oshirish, izchillik, uzluksizlik va bosqichmabosqich kompleks yondashuvni talab qiladi. Jumladan jahon tajribasida rivojlangan davlatlarda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni ta’lim bilan qamrab olishing turli yonashuvlariga ega bo‘lgan 3 davrni alohida ko‘rsatib o‘tsa bo‘ladi:

- 1970 yillargacha ta’lim oluvchilarning segregatsiyasi (alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta’limdan alohidalash va ularga maxsus maktab va internatlarda ta’lim berish);
- 1970-1990 yillar davomida ta’lim oluvchilarning integratsiyasi (alohida yordamga muhtoj bolalar uchun umumta’lim maktablarida alohida sinflarni tashkil etish);
- So‘nggi yillardagi inklyuziv ta’lim (alohida yordamga muhtoj bolalar boshqa bolalar bilan umumta’lim maktablarida bir sinfda tahsil olishi.)

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’limning inklyuziv shaklining paydo bo‘lishi asoslarini “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” bilan mantiqan

bog‘lash mumkin. Ushbu dekloratsiyaning 26-moddasida har bir insonning ta’lim olish huquqiga egaligi va unda hech qanday cheklovlar mavjud bo‘lmasligi qayd etib ketilgan. Keyinchalik qabul qilingan xalqaro qonunlar “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya (1989-yil), “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi deklaratsiya (1975-yil), “Ta’lim hamma uchun” umumjahon deklaratsiyasi (1990-yil), Salamanka bayonoti va ish rejasi (1994-yil), Dakar deklaratsiyasi (2000-yil) ushbu yangi ta’lim turning tizimi va huquqiy asoslarini yaratishda muhim ro‘l o‘ynadi.

AQSHda asta sekin maxsus va umumiy ta’limni barcha bolalar oddiy jamoat maktabida o‘qiydigan yagona tizimga birlashtirishga chaqirgan Muntazam ta’lim tashabbusi (REI) harakati boshlandi. Ammo ba’zi mamlakatlarda bu masala bahsli vaziyatlarni keltirib chiqardi va jumladan Avstraliya va Yangi Zellandiya kabi ba’zi davlatlarda bu masala ochiq qoldirildi, lekin ayni paytda ota-onalar tanloviga kuchliroq urg‘u berildi. Ayni vaqtda AQSH hamma bolalar uchun bir xil ta’lim imkoniyatlari yaratishga qaratilgan yana bir ijtimoiy harakat “Inclusice schooling movement” paydo bo‘ldi. Inklyuziv ta’lim tarafdorlari maktabni barcha o‘quvchilarni qamrab oladigan tarzda qayta qurish va o‘quv dasturiga tub o‘zgartirishlar kiritishni targ‘ib qiladilar, chunki mavjud o‘quv dasturlari ta’lim oluvchilarni mustaqil harakalana oladigan va imkoniyati cheklangan toifalarga ajratishda davom etmoqda edi.

Ammo ayni vaqtda yana bir ochiq olayotgan masalalardan biri bu o‘qituvchilar va o‘quvchilarning yangi turdagi ta’lim shakliga tayyormi yoki yo‘qligida edi. 1980yillarning boshlarida YuNESKO dunyoning barcha mintaqalarini qamrab olgan 14 mamlakatda o‘qituvchilar ta’limi bo‘yicha so‘rov o‘tkazdi [7, 18]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, oddiy sinf o‘qituvchilari alohida ehtiyojli bolalar uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishga tayyor, ammo ular bu vazifani bajarish uchun ko‘nikmalarga ega yoki yo‘qligiga ishonchlari komil emas. Aksariyat o‘qituvchilar esa maxsus ehtiyojlari bor bolalarni o‘qitish bo‘yicha malaka oshirishlari lozim deb hisoblashdi. Ushbu natijalar oddiy sinf o‘qituvchilari uchun o‘qituvchilar trenerlari orqali malaka oshirish zarurligini ko‘rsatdi. Shuning uchun YuNESKO hozirda Manchester universitetida bo‘lgan professor Mel Ainskou boshchiligida inklyuziv maktablardagi o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni qondiradigan materiallar va o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish loyihasini yaratdi [7, 42].

Inklyuziv ta’lim g‘oyasi O‘zbekistonga 1996 yilda kirib kelgan. Inklyuziv ta’limning asosiy g‘oyasi bolani ta’lim tizimiga kiritish uchun emas, balki ta’lim tizimining o‘zi har qanday bolani qamrab olishga tayyor bo‘lishi kerakligini

anglatadi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalar, nuqsonlarning og‘irligidan qat’i nazar, ta’lim tizimining ajralmas qismi ekanligi haqidagi falsafaga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan bolalar umumta’lim maktablari yoki ixtisoslashtirilgan maktablar o‘rtasida tanlov qilish huquqiga ega. Respublikada 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat mavjud bo‘lib, ularning rivojlanishiga davlat umumiy ta’limdan kam e’tibor qaratmaydi. Buning isboti sifatida qator huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin, jumladan “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun(1991), O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi (1992), “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (1997), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997), “Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturi rejasi (2003), “Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’lim to‘g‘risida muvaqqat nizom”i (2005), “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni (2008), “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-farmon (2017-yil), “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-farmon(2019-yil), “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4860 sonli qaror (2020), “2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” (PQ-4860-son qaror asosida) kabi qonun va qonunosti hujjatlari ushbu mexanizmning O‘zbekistonda joriy etilishi va asoslarining yaratilishida huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Shuningdek inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida jahon hamjamiyatlari bilan ham qator hamkorlik dasturlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan 1996-yilning noyabr oyida YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda “Maxsus ta’lim sohasida inklyuziv usullar” mavzusida milliy o‘quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo‘yicha YuNESKO, YuNISEF, Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda mintaqaviy anjuman tashkil etildi. 2014-2016-yillar davomida esa Yevropa Ittifoqi hamkorligida o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim amaliyoti bo‘yicha o‘qitish loyihasi amalga oshirildi hamda o‘quvchilar va ota-onalar uchun inklyuziv ta’lim o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, 5 ta tajriba resurs markazi va 15 ta tajriba maktablari tashkil etildi [4, 6].

2022-yil oktabr oyida bir necha hafta davomida USAID tomonidan SHARE hamkorlik shartnomasi doirasida ishlayotgan Notrdam universiteti tadqiqotchilari mahalliy ekspertlar bilan birgalikda Toshkent, Sirdaryo va Namangan hududlarida diagnostik tizimli taxliliy tadqiqot o‘tkazdi [4, 4]. Ushbu tadqiqotning asosiy

maqsadi O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar ta’limi holati va sifatini baholash hisoblanib, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi uchun ushbu sohaning O‘zbekistondagi rivojlanish darajasini tahlil etish maqsadida amalga oshirildi. Albatta, ushbu tadqiqot O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida amalga oshirilgan turli siyosiy tashabbuslar, o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim amaliyotiga o‘rgatish bo‘yicha loyha dasturlari hamda “2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” tashabbuslarini alohida e’tirof etgan holda, sohadagi mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlab, istiqboldagi harakatlar uchun muhim taklif va xulosalar berdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar uchun ta’limning yangi shakli sifatida butun jahon hamjamiyati tomonida e’tirof etilmoqda va dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida allaqachon ushbu ta’lim o‘zini oqladi. O‘zbekistonda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan ota-onalar, o‘qituvchilar, ma’muriyatlarning imkoniyati cheklangan bolalar uchun sifatli ta’lim berish yo‘lidagi faoliyatida ma’lum to‘siqlar mavjud va imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli ta’lim berish uchun yanda jiddiy va qatiy o‘zgarishlar amalga oshirish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.09.2026.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.09.2026.

3. D. Jalilova, B. Zayniyev. Inclusive Teaching problems in Uzbekistan // Eurasian Scientific Herald. May, 2022. – 270-272 pp.

4. Jenna White, TJ D’Agostino, Shahnoza Ikromova, Sean O‘Neill, Brianna (Annie) Conaghan. Uzbekistan inclusive education diagnostic study. University of Notre Dame, December 2022. – 37 pp.

5. Micheline Mason and Richard Rieser. Altogether better. London: Hobsons Publishing, 1992. – 56 pp.

6. M.A.Winzer. The history of special education : from isolation to integration. – Washington: Gallaudet University Press, 1993. – 463 pages

7. UNESCO (1994). World Conference on Special Needs Education: Access and Quality; final report. Salamanca, Spain, 7-10 June 1994. – 121 pp.

8. What an inclusive, equitable, quality education means to us. Report of the International Disability Alliance. June 17, 2020. – 43 pp.

9. Zina Weygand. The Blind in French Society from the Middle Ages to the Century of Louis Braille. Stanford University Press, 2009. – 424 pp.

10. Nam, G. (2019). Uzbekistan: Case for Inclusion. Disability, CBR & Inclusive Development, 30(1), 94-111.

11. Nam, G. (2021). Inclusive education for children and young people with disabilities in Uzbekistan: The perspectives and experiences of key players (Doctoral dissertation, The University of Waikato).